

Surxondaryoda osoyishta hayotimiz posbonlari sharaflanmoqda



So'nggi yillarda qurolli kuchlarimiz tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tinch, obod hayotimizni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev g'oyasi bilan davlatimizning harbiy-siyosiy masalalar bo'yicha qat'iy pozitsiyasini ifoda etadigan Mudofaa doktrinasini ishlab chiqilgani bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirishda muhim omil bo'layotir. Bu jarayonda joylarda harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etilgani mudofaa sohasida yagona davlat siyosatini yuritib, armiya va xalq birligini ta'minlash va hududiy mudofaa masalalarini yechishda hal qiluvchi organ vazifasini o'tamoqda.

Mamlakatimiz janubidagi Surxondaryo viloyatida ham harbiy-ma'muriy sektor yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, qo'shnlarning kundalik faoliyatini samarali tashkil etish, harbiy xizmatchilar va ular oilasining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda harbiy shaharchalar, poligonlar infratuzilmasini rivojlantirishda harbiy tuzilmalar komandirlariga yaqindan ko'maklashmoqda.

Tantanali tadbirda bir guruh harbiy xizmatchilar viloyat hokimining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Qurolli Kuchlar orkestr va ansambl jamoalari, san'at ustalari va ijrochi yoshlar ishtirokidagi kontsert dasturi barchaga manzur bo'lmoqda.

https://t.me/axborot_xizmati